

## SUN'IY INTELLEKT VA DEZINFORMASIYA: YANGI CHAQIRIQLAR

Zamonaviy axborot muhitida sun'iy intellekt (SI) hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. U nafaqat o'qitish va o'rganish jarayonini osonlashtirmoqda, balki axborot yaratilishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon yangi xavflarni ham yuzaga keltirdi.

Bugungi kunda dezinformatsiya, manipulyatsion kontent va "deepfake" texnologiyalar inson ongiga ilgari hech bo'lmagan darajada ta'sir o'tkazmoqda. Shu sababli har bir pedagog bu jarayonlarni tushunishi, ularning ijtimoiy-psixologik ta'sirini anglay olishi va o'quvchilarni bu xavflardan himoya qilish yo'llarini bilishi zarur.

Sun'iy intellektning ijobiy jihatlari ko'p. U o'qituvchiga darsni soddalashtirish, individual o'qitish, material tayyorlash va o'quvchilar qiziqishini oshirishda katta yordam beradi. Masalan, ChatGPT yordamida dars uchun qo'shimcha savollar tuzish yoki Canva SI orqali o'quv materiallari yaratish o'qituvchiga vaqt tejaydi.

Ammo bu qulayliklar bilan bir qatorda, SI vositalari orqali yaratilayotgan yolg'on kontentlar soni ham ortib bormoqda. Eng xavfli tomoni shundaki, bu kontentlar juda ishonchli ko'rinishga ega bo'lib, haqiqat bilan soxtalik o'rtasidagi chegarani buzmoqda.

Bugungi kunda sun'iy intellekt yordamida dezinformatsiya ya'ni yolg'on axborotlar yaratish va tarqatish ham keng ommalshmoqda. Shu sababli dezinformatsiyaning asosiy quroli esa hissiy ta'sirdir. Bunday xabarlar odamni darhol ishonishga undaydi va tekshirish ehtiyojini kamaytiradi. Masalan, "yangi darsliklarda xato topildi", "sun'iy intellekt o'qituvchilarni almashtiradi" kabi sarlavhalar e'tiborni tortadi, ammo ko'pincha faktlarga asoslanmagan bo'ladi.

Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan kontentning yana bir xavfi bu "realistik yolg'on"dir. SI texnologiyalari matn, rasm, ovoz yoki video yaratishda inson uslubini mukammal taqlid qila oladi. Natijada, oddiy foydalanuvchi uchun ularni ajratish tobora qiyinlashmoqda. Shu sababli o'qituvchi nafaqat kontentni tahlil qila olishi, balki o'quvchilarga ham "axborotni tekshirish madaniyati"ni singdirishi kerak.

Dezinformatsiyani tanib olishda tanqidiy fikrlash asosiy vositadir. O'qituvchi o'quvchilarga har bir xabarni tahlil qilishni o'rgatadi: kim e'lon qilgan, maqsadi nima, manba ishonchlimi, dalil bormi, xabar his uyg'otish orqali

manipulyatsiya qilmayaptimi? Bu oddiy savollar o'quvchilarda mediainmunitetni shakllantiradi. Ayniqsa, 5W1H va CRAAP testi kabi tahliliy metodlardan foydalanish o'quvchilarga amaliy ko'nikma beradi.

Shunday ekan, barchamiz ushbu texnologiyalardan madaniyat bilan foydalanishimiz kerak. Masalan, o'qituvchilar bu texnologiyalarni darsni boyitish, ta'lim sifatini oshirish uchun ishlatishi mumkin. Ammo SI ishlab chiqqan materialni doimo tekshirib, shaxsiy tajriba va bilim bilan boyitish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki sun'iy intellekt tezkor, ammo u insoniy hissiyot, tarbiya va qadriyatlarni o'zida to'liq aks ettira olmaydi.

Shu bilan birdalglikda, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni "axborot yaratish mas'uliyati"ga o'rgatishi kerak. Har bir o'quvchi bilishi lozim: soxta ma'lumot tarqatish yoki tekshirilmagan kontentni baham ko'rish bu oddiy xato emas, bu ijtimoiy ishonchga zarar yetkazishdir. Masalan, dars davomida o'quvchilar bilan "Haqiqat yoki montaj?" nomli mashq o'tkazish mumkin. Unda turli suratlar va videolar ko'rsatiladi, o'quvchilar esa ularni tahlil qilib, qaysi biri sun'iy yaratilganini aniqlashadi. Bunday mashqlar o'quvchilarning kuzatuvchanligini oshiradi, mediainmunitetni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi buyuk yutuqdir, biroq u bilan birga yangi mas'uliyatni ham olib keladi. SI yordamida yaratilgan har bir kontent foyda yoki zarar keltirishi mumkin — bu foydalanuvchining ongiga, saviyasiga va axloqiy qarashlariga bog'liq. O'qituvchi bu jarayonda nafaqat bilim beruvchi, balki yo'l ko'rsatuvchi shaxsdir. U o'quvchilarga axborotning ortida turgan niyatni ko'ra olishni, haqiqat va soxtalikni farqlashni, texnologiyadan foyda olishni, lekin unga qaram bo'lmaslikni o'rgatadi.

Raqamli asrda eng kuchli inson bu ko'p ma'lumotga ega bo'lgan emas, balki ma'lumotni to'g'ri tahlil qila oladigan insondir. O'qituvchi esa aynan shunday tafakkur egalarini tarbiyalaydigan eng muhim bo'g'indir.



D BLOCK



TABRIKLAYMIZ!  
Siz 1.000.000 yutdingiz  
Yutuqni oling!